

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAHLILI

Mirzatillayev Umid Izzatillayevich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning statistik tahlili, ularning kriminologik jihatlari, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishda inspektor-psixologlarning roli, ularning vakolatlari, bu boradagi ilmiy qarashlar, xalqaro tajriba tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada inspektor-psixologlarning voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishdagi vakolatlari takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, voyaga yetmaganlar, inspektor-psixolog, huquqbuzarlik, sud, prokuror, bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari.

Abstract. This article analyzes the statistical analysis of crimes committed by minors, their criminological aspects, the role of inspector-psychologists in the prevention of crimes committed by minors (juveniles), their powers, scientific views on this matter, and international experience. In addition, the article contains suggestions for improving the powers of inspector-psychologists in the prevention of crimes committed by minors (juveniles).

Keywords: crime, minors (juveniles), inspector-psychologist, offense, court, prosecutor, district (city) commissions on children's issues.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlariga, ularni sodir etayotgan shaxslarga, ularda g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllanishi jarayoniga, ularning sabab va sharoitlariga, shuningdek barvaqt oldini olish masalalariga oid mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurash nazariyasi va amaliyotining ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash, mavjud muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topish va profilaktik choratadbirlar samaradorligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha zarur tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardir.

Shuni unutmash zarurki, voyaga yetmaganlar jinoyatlari profilaktikasiga doir samarali ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni yaratish, birinchidan, kriminologik ilmiy-nazariy bilimlarni tizimli ravishda boyitib borishni, ikkinchidan, mazkur bilimlar bilan amaliyotni qurollantirishni, uchinchidan, ta'lim-tarbiya tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashni taqozo etadi. Shu o'rinda nazariya amaliyotning ko'zi ekanligini, amaliyot esa nazariya uchun asosiy muammolarni aniqlash maydoni ekanligini

unutmasligimiz kerak. Bugungi kunda bir tomondan, amaliyotning nazariy bilimlarga yetarli asoslanmayotganligini, ikkinchi tomondan esa, ayrim yo'nalishlarda nazariyaning amaliyotdan orqada qolayotganligini kuzatish mumkin.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining barvaqt oldini olish bevosita bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati mazmun-mohiyatida o'z aksini topgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish

bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqqligi hamda oshkorligini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.

Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar faoliyati obyektlarini qiyosiy tahlil qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar faoliyatining obyektlar ko'lamiga kengligi sababli, ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflagan holda tadqiq qilish maqsadga muvofiq: Jumladan:

a) jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan yoxud sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar;

b) voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etilgan yoxud sodir etilishi mumkin bo'lgan joylar (ta'lim muassasalari (bog'cha, maktab, texnikumlar) mehribonlik uylari, xonadonlar, jamoat joylari (ko'chalar, internet klublar, kafe va barlar, qarovsiz qoldirilgan joylar va h.k.)

v) voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan yoxud sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslar (voyaga yetmagan shaxs bilan birga yashovchilar (otanas, bobo-buvisi, qonuniy vakili, vasiy yoki

homiysi), ular bilan yaqin muloqotda bo'luvchi axloqan buzuvchi shaxslar (jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga jalb etuvchi shaxslar), ularga nisbatan jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar (pedofillar, giyohvandlar, fohishalar va h.k.).

Quyida ushbu tasnifning har biriga alohida to'xtalamiz.

Avvalo jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan yoxud sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar haqida gapiradigan bo'lsak, hech bir bola onasining qornidan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Voyaga yetmaganlarning jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishiga davlat organlari favqulodda holat sifatida qarab, har bir jinoyat yoki huquqbuzarlikning sabab va shart-sharoitini chuqur tahlil qilib borishi, tegishli choralarni ko'rishi zarur. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tahlil qilgan olimlardan A. Kettle jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga harakat qilib, "jinoyat sodir etishga moyillik odamning yoshi, jinsi, kasbi, ma'lumoti darajasi, yilning mavsumi va boshqalarga bog'liq bo'ladi" [1], degan xulosaga kelgan.

N.A. Ramazonova voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish faoliyatini o'rganib, "voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar deganda, jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikning minimal yoshi va milliy qonunchilik asosida voyaga yetish yoshi sifatida tan olingan yoshga yetgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar tushuniladi" [2], degan fikrni ilgari surgan. Biz, N.A. Ramazonovanning bu fikriga qo'shilmaymiz, chunki unda voyaga yetmaganing aniq yosh chegarasi belgilanmagan.

Ya.V. Samiulina ayol jinsidagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganib, "voyaga yetmagan ayollarning jinoyati zamonaviy jinoyatchilikning o'ziga xos turi bo'lib, uning o'ziga xosligi kichik jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilandi va miqdor va sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan muayyan hududda ma'lum vaqt davomida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayollar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisidir" [3] deydi. Fikrimizcha, ushbu ta'rif N.A. Ramazonovning fikriga nisbatan ancha mukammal, chunki amaldagi jinoyat qonunchiligimizda ham jinoyat subyekti yoshining eng kichik yoshi sifatida 14 yosh belgilangan. Shu bilan birga,

shaxs 18 yoshdan boshlab to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi hamda o'z xatti-harakatiga o'zi javob berishi qonunchiligimizda mustahkamlangan.

Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yili jinoyat sodir etgan 3599 nafar voyaga yetmaganlarning 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ulardan 744 nafari 13–15 yosh, 2855 nafari 16–17 yoshlidir. Qizlarning ulushi 8,7 foiz – 314 nafarni tashkil etgan [4].

Eng ko'p jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar Farg'ona viloyatida qayd etilgan – 700 nafar. Keyingi o'rinlarda Toshkent – 545, Namangan viloyati – 451 va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62 va Xorazm viloyatlarida – 66 kishi.


Jinoyat turlari bo'yicha voyaga yetmaganlarning aksariyati yoki 1602 nafari o'g'rilik (bir yil avval – 1581 nafar), 453 nafari bezorilik (284 nafar), 135 nafari firibgarlik (134 nafar), 181 nafari talonchilik va bosqinchilik (162 nafar) sodir etgan, 104 nafari qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (74), 54 nafari nomusga tegish va nomusga tegishga urinish (46), 27 nafari

tovlamachilik (16) 12 nafari esa qasddan odam o'ldirish va odam o'ldirishga urinish (10) jinoyatini sodir etgan.

57 nafar voyaga yetmaganlar giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki sotish, 121 nafari o'limga olib kelmaydigan yo'l-transport hodisalari, 4 nafari qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyatlarni sodir etgan [5].

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar g'ayriijtimoiy xulq-atvor va huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinganda, ularning 18,7 foizi maktab ichki nazoratida turuvchilar, 14,3 foizi agressiv xulq-atvoriga ega bo'lganlar, 6,9 foizi muntazam ravishda dars qoldiruvchilar, 1,8 foizi muqaddam jinoyat sodir etganlar, 1,5 foizi profilaktik hisbsda turuvchilar, 1,2 foizi probatsiya nazoratida turuvchilar, 0,3 foizi ixtisoslashgan o'quv-tarbiya muassasasidan qaytganlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan 55,3 foizini moyillikning hech qanday belgisi bo'lmaganlar nazoratsiz qolganligi oqibatida jinoyat sodir etishgan.

2023-yilda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar tarkibining tuzilishi



Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etilgan yoxud sodir etilishi mumkin bo'lgan joylar ham inspektor-psixologlar faoliyatining obyekti bo'lishi lozim. Negaki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarga har kuni ko'zimiz tushmoqda. Jumladan, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar Nurafshon mahallasida yashovchi 1992-yilda tug'ilgan ayol F.M. chet elda bo'lgan eri bilan o'zaro kelishmovchilikka borib, eriga jahl qilib, voyaga yetmagan farzandiga nisbatan jismoniy kuch ishlatgan va uni qiynab, azoblagan. Holat yuzasidan IIB xodimlari tomonidan tekshiruv harakatlari olib borilib, ayolga nisbatan Jinoyat kodeksining 110-moddasi (Qiynash) 2-qismi "a" bandi hamda 112-moddasi (O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan [6].

Shunga o'xshash yana bir holatda bir ayol o'z bolalarini qiynayotgani aks etgan video tarqaldi. Samarqand viloyati IIB axborot xizmatining xabar berishicha, holat Kattaqo'rg'on tumanining "Andoqsoy" MFY, Andoqsoy qishlog'ida sodir bo'lgan. 2000-yilda tug'ilgan X.U. ayni damda Rossiyada bo'lgan eri bilan janjallashib, jahl ustida bolasini qiynab, tasvirga olib turmush o'rtog'iga yuborgan. Ma'lum qilinishicha, holat yuzasidan Kattaqo'rg'on tumani IIB huzuridagi tergov bo'limi tomonidan Jinoyat kodeksining 110-moddasi 2-qismi "a" bandi (Voyaga yetmaganlarni qiynash) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan [7].

Yuqoridagi har ikki holatda ham voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik fuqarolarning yashash xonadonida sodir etilgan. Bu holatlar ijtimoiy tarmoqlarda yoki

ommaviy axborot vositalarida yoritilgan bo'lib, yoritilmagan holatlar qanchaligi to'g'risida aniq bir fikr bildirish qiyin. Chunki, odatda, bunday holatlar latentligicha qolib ketadi.

Shu nuqtayi nazardan, nazarimizda, voyaga yetmagan shaxslarni kelgusida tazyiq yoki zo'ravonlikka tushib qolmasligi uchun inspektor-psixologlarga voyaga yetmaganlar orasida tazyiq yoki zo'ravonlikka tushishi mumkin bo'lganlarni aniqlash, ularning ota-onalari bilan manzilli ishlash, ota-onalariga hamda voyaga yetmaganlarni ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy himoya qilishda ko'maklashish funksiyasini yuklash zarur deb hisoblaymiz. Tergov bilan bog'liq hollarda esa voyaga yetmaganlarga himoya orderi berish amaliyotini joriy etish taklifini ilgari suramiz.

Chunki, bugungi kunda inspektor-psixologlar voyaga yetmaganlar tomonidan yoki ularga nisbatan sodir etiladigan jinoyat yoxud huquqbuzarlikning olini olish bilan emas, balki sodir etilganidan keyin uning oqibati bilan shug'ullanmoqda. Bu esa juda kech bo'lib, voyaga yetmaganlarning psixologik rivojlani-shiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, nazarimizda, inspektor-psixologlar jinoyat yoki huquqbuzarlik keltirib chiqargan oqibat bilan emas, aksincha, ularni barvaqt oldini olish, voyaga yetmaganlarda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish bilan shug'ullanganlari maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, inspektor-psixologlar faoliyatining obyektlarini tahlil qilish ular faoliyatining kelgusi istiqbollarini belgilab berish bilan birga, voyaga yetmaganlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, huquqbuzarliklar profilaktikasini to'g'ri yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Кетле А. Человек и развитие его способностей. – СПб, 1865. – С. 8.
2. Ramazonova N.A. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti: Yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2020. – B. 17.
3. Самиулина Я.В. Личность несовершеннолетней преступницы и воздействие на нее: Автореф....дис. канд. юрид. наук. – Тамбов, 2009. – С. 11.
4. https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=424&id=3116&Itemid=1000000000000.
5. <https://kun.uz/kr/news/2024/02/27/voyaga-yetmaganlar-eng-kop-jinoyat-sodir-etgan-hudud-malum-qilindi>.
6. <https://kun.uz/kr/news/2024/06/06/samarqandda-eriga-jahl-qilib-bolasini-azoblagan-ayolga-jinoyat-ishi-qozgatildi>.
7. <https://kun.uz/kr/news/2023/03/18/kattaqorgonda-bolalarini-qiynagan-ayolga-jinoyat-ishi-qozgatildi>.